

# **XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

## **ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2022- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 6780,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga ko'paydi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 14,8 % ni yoki 1003,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5777,6 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 85,2 % o'zlashtirildi.



### Asosiy kapitalga investitsiyalar



## Markazlashgan investitsiyalar

| Moliyashtirish manbalari  | Markazlashgan moliyashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da | O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da |
|---|---|--|
| Respublika byudjeti   | 8,1 %   | 96,8 %                                   |
| Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | 1,0 %   | 112,4 %                                  |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi                                   | 1,1%  | 32,6 %                                   |
| O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar          | 4,6 %   | 6,0 m                                    |


## Markazlashmagan investitsiyalar

| Moliyashtirish manbalari                             | Markazlashmagan moliyashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da | O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da |
|--|---|--|
| Korxonalar mablag'i                                  | 28,6 %  | 146,8 %                                  |
| Aholi mablag'lari                                    | 22,5 %  | 106,5 %                                  |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar | 24,5 %  | 81,9 %                                   |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzarlar      | 9,6 %   | 120,7 %                                  |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar           | 4,3 %   | 45,4 %                                   |

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1937,7 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,6 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22,5 %i yoki 1525,7 mlrd so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 289,9 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 45,4 %ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,3 %ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd so'm




Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 650,1 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,6 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,7 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 311,1 mlrd so'm (4,6 % va 6,0 m.), To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar 1664,1 mlrd so'm (24,5 % va 81,9 %), Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 550,2 mlrd so'm ( 8,1 % va 96,8 %), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 65,6 mlrd so'm (1,0 % va 112,4 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

## 2022- yil yanvar- sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

| Shahar va tumanlar | hajmi,<br>mlrd so'm | o'sish sur'ati | viloyatdagi<br>ulushi |
|--------------------|---------------------|----------------|-----------------------|
| Urganch shahri     | 1611,9<br>mlrd so'm | 100,2 %        | 23,8 %                |
| Xiva shahri        | 345,4<br>mlrd so'm  | 115,7 %        | 5,1 %                 |
| Bog'ot tumani      | 309,4<br>mlrd so'm  | 87,5 %         | 4,6 %                 |
| Gurlan tumani      | 306,8<br>mlrd so'm  | 104,6%         | 4,5 %                 |
| Qo'shko'pir tumani | 676,4<br>mlrd so'm  | 222,4 %        | 10,0 %                |
| Urganch tumani     | 611,1<br>mlrd so'm  | 163,4 %        | 9,0 %                 |
| Hazorasp tumani    | 324,1<br>mlrd so'm  | 75,1 %         | 4,8 %                 |
| Shahar va tumanlar | hajmi,<br>mlrd so'm | o'sish sur'ati | viloyatdagi<br>ulushi |

|                    |                    |         |       |
|--------------------|--------------------|---------|-------|
| Tuproqqal'a tumani | 356,8<br>mlrd so'm | 126,1 % | 5,3 % |
| Xonqa tumani       | 505,9<br>mlrd so'm | 134,3 % | 7,5 % |
| Xiva tumani        | 451,8<br>mlrd so'm | 142,0 % | 6,7 % |
| Shovot tumani      | 457,0<br>mlrd so'm | 148,1 % | 6,7 % |
| Yangiariq tumani   | 407,1<br>mlrd so'm | 40,8 %  | 6,0 % |
| Yangibozor tumani  | 417,1<br>mlrd so'm | 152,3 % | 6,1 % |

**2022- yil yanvar- sentabr oylarida investitsiyalarning  
o'sish sur'atlari, %da**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida - 222,4 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 676,4 mlrd so'm), Urganch tumanida - 163,4 %




(611,1 mlrd so‘m), Yangibozor tumanida - 152,3 % (417,0 mlrd so‘m), Shovot tumanida – 148,1 % (457,0 mlrd so‘m).

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so‘m



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo‘yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida - 23,8 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1611,9 mlrd so‘m), Urganch tumanida 9,0 % (611,1 mlrd so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida 10,0 % (676,4 mlrd so‘m), Xonqa tumanida 9,0 % (505,9 mlrd so‘m).

## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2022- yilning yanvar-sentabrda 3503,2 ming so'm yoki 119,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 5 818,7 ming so'm ni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,7 %ni tashkil etdi. Tuproqqal'a tumanida 3 555,7 ming so'm (yoki 116,0 %) va Yangibozor tumanida 3 128,1 ming so'm (yoki 165,7 %) darajada qayd etildi.




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,( %da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 52,4 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 40,2 %, boshqa xarajatlarning ulushi 5,4 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1027,4 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 15,2 %, ishlab chiqarish sanoati – 1578,0 mlrd so'm (23,3 %), qurilish - 383,0 mlrd so'm (yoki 5,6 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 268,0 mlrd so'm (yoki 4,0%), ta'lim - 283,6 mlrd so'm (yoki 4,2 %), uy-joy qurilishi - 1013,8 mlrd so'm (yoki 15,0 %) va boshqa faoliyat turlari – 1374,1 mlrd so'm (yoki 23,2 %).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 1975,2 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 178,3 mln AQSH dollari), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 588,2 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 1387,0 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 289,9 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 311,1 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 1074,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 18,1 %ni ta'minladi, Shovot tumanida -11,4 %, Qo'shko'pir tumanida - 11,1 % darajada kuzatildi.




### Xorijiy investitsiya va kreditlar

|                            | <i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i> |                                 | <i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i> |  |
|----------------------------|--|---------------------------------|---|--|
|                            | <i>Jami:</i>   | <i>Shu jumladan, kreditlar:</i> | <i>Jamiga:</i>  | <i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i> |
| <b>Xorazm viloyati</b>     | <b>1975,2</b>  | <b>1387,0</b>                   | <b>100,0</b>  | <b>29,1</b>                              |
| <i>shahar va tumanlar:</i> |  |                                 |   |  |
| Urganch sh.                | 356,5  | 222,3                           | 18,3  | 22,1                                     |
| Xiva sh.                   | 130,8  | 70,2                            | 6,6   | 37,9                                     |
| Bog'ot                     | 36,5   | 36,5                            | 1,8   | 11,9                                     |
| Gurlan                     | 43,2   | 43,2                            | 2,2   | 6,4                                      |
| Qo'shko'pir                | 219,0  | 219,0                           | 11,1  | 35,8                                     |
| Urganch                    | 213,6  | 201,9                           | 10,8  | 65,9                                     |
| Hazorasp                   | 66,2   | 66,2                            | 3,3   | 18,5                                     |
| Tuproqqal'a                | 74,0   | 74,0                            | 3,7   | 14,6                                     |
| Xonqa                      | 168,5  | 168,5                           | 8,5   | 37,3                                     |
| Xiva                       | 157,4  | 157,4                           | 8,0   | 34,4                                     |
| Shovot                     | 225,8  | -                               | 11,4  | 55,5                                     |
| Yangiariq                  | 182,2  | 26,3                            | 9,2   | 43,7                                     |
| Yangibozor                 | 101,7  | 101,7                           | 5,1   | 11,9                                     |

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 29,1 %ni tashkil qildi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 4,6 % yoki 311,1 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 87,2 % yoki 1975,2 mlrd so'mni, shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 289,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Nashr uchun mas'ul: G.Xaitbayeva**  
**Telefon: (62) 224-65-22**